

## **TARJIMADA PRAGMATIK MUAMMOLAR**

(ingliz va qoraqalpoq tillari misollarida)

**Jumamuratova Ramiza Adilmuratovna**

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida  
docent*

[ramizajumamuratovaazamat@mail.ru](mailto:ramizajumamuratovaazamat@mail.ru)

*contact number +998913049977*

**DOI:**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14238662>

Har bir sohaning o'zi tadqiq qiladigan yo'nalishi, o'rganadigan muammolar tizimi mavjud bo'ladi. Xuddi shunday tarjimaning ham bir qator muammolari mavjud bo'lib, biz ko'rib chiqadigan muammolar bu pragmatik muammolardir. Tarjimaning pragmatik muammolari hali hanuz chuqur o'rganib chiqilmagan va hamon tadqiq talabdir.

Tarjimadagi mavjud muammolar quidagilarni tashkil qiladi ya'ni adekvatlik, asliyatning janr xususiyatlari va tarjima mo'ljallangan kitobxonning fon bilimi, kommunikativ maqsad, pragmatik neytrallik, realiya, generalizatsiya (umumiylashtirish), konkretizatsiya, dialektlar, asliyatning modernizatsiyasi va shu kabi bir qator muammolar. Tarjimaning eng asosiy muammolaridan biri bu pragmatik adekvatlikdir. Adekvat tarjima bu – mukammal tarjimadir. Adekvat tarjima tushunchasining mualliflari bo'lgan A.V.Fedorov va Ya. I. Resker tarjimini aniq hikoya qilib berish deb tushunmaslikka da'vat etadilar. Tarjima ham, hikoya qilib berish ham, agar ular yuqori saviyada amalga oshirilgan bo'lsa, tarjima qilingan til normalari va qoidalariga muvofiqdir.

A.V. Fedorov va Ya. I. Reskerning fikricha, mukammal tarjima deganda asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima – adekvat tarjimadir.

Misol tariqasida quyidagi maqollarning tarjimasiga e'tibor beraylik:

Ingliz tilida: - *Cut your coat according your cloth.*

Qoraqalpoq tilida: - *Ko'rpen'e qarap ayaq soz.*

Ingliz tilida: - *Strike the while it is hot.*

Qoraqalpoq tilida: - *Temirdi qizg'anda bas.*

Tarjimada pragmatik adekvatlikka erishish bu - asliyatga har tomonlama mos keladigan tarjimini amalga oshirish demakdir. Ammo pragmatik adekvatlikka har doim ham erishib bo'lmaydi. Pragmatik adekvatlikni ta'minlashda so'zlovchilar tomonidan ishlatiladigan hududiy-dialektga, ijtmoy-dialektga xos bo'lgan va

o'zgargan nutq kabi standart shakllarning ishlatilishi kabi sotsiolingvistik omillar ham muhim ro'l o'ynaydi. Keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qilib kelayotgan til kommunikasiyasining pragmatik jihati muloqot ishtirokchilarining yuqori saviyadagi qo'shimcha bilimlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanmoqda. Asliyat va tarjima tillari g'ayrilisoniy omillarining aksariyat hollarda tafovut qilishi tarjimondan chuqur lingvistik bilimdan tashqari yana ko'pgina boshqa fanlar, madaniyatlar ma'lumotlaridan ham xabardor bo'lishini talab qiladi.

Til belgilari va ulardan foydalanadigan shaxslar o'rtasidagi pragmatik munosabatlar shundan iboratki, bu belgilar, aniqrog'i ularning ma'nolari ayni shaxslar uchun aniq va tushunarli bo'lishi, ularni ma'lum darajada ta'sirlantirishi kerak [3, 15b]. Axborotning shu yo'sinda talqin qilinishigina tarjimada asliyatning kommunikativ ta'sirchanligini saqlab qoladi.

Har qanday til belgisi odatda uch xil munosabatni o'zida mujassam etadi. Ular semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlar hisoblanadi.

Semantik munosabat – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradi;

Sintaktik munosabat – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadi;

Pragmatik munosabat – til belgisi bilan muloqat jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir [5, 60b].

Tarjimaning pragmatik adekvatligini ta'minlashda tilning turli shevalarida, lahjalarida gapiruvchi, bir-birlaridan farq qiluvchi ijtimoiy- lisoniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Jumladan, asliyat matnida til normalaridan chekinish, stilistik maqsadlarda dialektlarga xos so'zlardan foydalanish, kontaminatsiyadan (tilni buzib gapirish) foydalanish holatlari ham muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Asliyat tilidagi dialektlarga xos so'zlar tarjima tiliga o'zicha tarjima qilinmaydi. Ularning matn ichida ishlatilishi ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan u badiiy asar butunlayiga xorijiy tilning muayan bir tilida yozilgan bo'lishi ham mumkin. Bu holda bu dialekt tili tarjima qilinsa, tillararo aloqo vositasi vazifasini bajarishga kirishadi va tarjima xuddi har qanday umummilliy tildan amalga oshirilgan xisoblanadi. Tabiiyki, bunday holda tarjimon bu dialekt tilining o'ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo'lishi lozim. Ikkinchi tomondan, dialektga xos elementlar muallif tomonidan alohida personajlar tilining o'ziga xos xususiyatlarini, u ma'lum bir hududda gapiradigan xalqning tipik vakili ekanligini ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Bunday holda asliyat tilining dialektlarga xos pragmatik xususiyatlarini tarjimada qayta tiklash hech qanday natija bermaydi. Agar asliyat

tilidagi personaj «kokni» (cockney dialect) deb ataladigan London dialektida gapirib, soʻzlarga adabiy tilda mavjud boʻlmagan harflarni qoʻshib gapirsa, yoki bu tovushni zarurat boʻlmagan holatlarda tushirib gapirsa, masalan:

«*He has a good hear*» demasdan «*He has a good \_ear*» deb talaffuz qilsa va tarjimon bu xususiyatni saqlab qolish uchun tilda mavjud boʻlmagan anʼanadan foydalanib, «u yaxshi eshitish qobiliyatiga ega» deyish oʻrniga «xu yaxshi xeshitish qobiliyatiga ega» deb tarjima qilsa, bu butunlay beʼmanilik boʻlar edi. Bu oʻrinda tarjimon tarjimada oʻzbek tilining qandaydir dialektlariga xos soʻzlardan foydalanishi mumkin emas. Chunki ular oʻzbek dialektlariga xos soʻzlar hisoblanadi. Masalan, Mark Tvenning Missuri shtatida yashaydigan *negrini* oʻzbek tiliga qilingan tarjimada Xorazmda yoki Qoraqalpogʻistonda yashaydigan aholi tili bilan gapirtirish nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan ham oʻzini oqlamaydi. Shunday ekan, asliyat matnidagi asliyat tilining hududiy dialektlariga xos elementlari tarjimada berilmaydi. Ammo bu oʻrinda tarjimada pragmatik xususiyat yoʻqoladi va tarjimaning asliyat bilan adekvatlik darajasi yana bir pogʻona pasayadi. Bu ham oʻz navbatida tarjimada pragmatik adekvatlik muammosini keltirib chiqaradi.

Pragmatik adekvatlikni taʼminlashda soʻzlovchilar tomonidan ishlatiladigan hududiy-dialektga, ijtmoy-dialektga xos boʻlgan va oʻzgargan nutq kabi sotsiolingvistik omillarning ishlatilishi ham muhim rol oʻynaydi.

Tillararo, madaniyatlararo nomuvofiqliklar tarjima tilini aniq, tushunarli boʻlishligini taʼminlay olmasa, tarjimon bunday toʻsiqlarni oldini olish choralarini

qidiradi, matnga tegishli oʻzgartirishlar kiritishga majbur boʻladi. Tarjimani oʻquvchi kitobxonda fon bilimlarning yetishmasligi tarjimonga axborotning maʼlum bir qismini eksplitsit yaʼni, ochib berish usulida bayon qilishga, matn mazmuniga qoʻshimchalar, izohlar kiritishga majbur qiladi. Bu ayniqsa asliyatda semantik maʼnoga ega boʻlgan ism va familiyalar tarjimasida, geografik atamalar, turli tuman madaniy-maishiy realiyalar tarjimasida koʻproq uchraydi. Masalan, Angliyadagi geografik oʻrinlarni ifodalovchi Oxfordshire, Middlesex, Cambridge, Amerikadagi Oklahoma, Virginia, yoki Kanadadagi Alberta, Manitoba va hokazo geografik nomlarni ifodalashda ularning oldiga graflik, shtat, provinsiya kabi soʻzlarini qoʻshib tarjima qilinmasa, bu geografik joy nomlarini ifodalovchi soʻzlar qoraqalpoq kitobxoniga tushunarli boʻlmaydi. Masalan: **America backs British peace move, «The Times» reports.** Bu jumla tarjimasida qoʻshtirnoq ichidagi soʻz oldiga «gazeta» soʻzi qoʻshilmasa, bu soʻz tarjimonga tushinarsiz boʻlib qoladi: Masalan, quyidagi jumla tarkibidagi realiya tarjimasiga eʼtibor bering **for desert you got Brown Betty, which nobody ate ...**

**Desert ushin dasturxang'a Brown Betti- yag'niy almali puding tartildi, biraq oni hesh kim jemedi.** «Almali puding» so'zining qo'shilishi o'zbek kitobxonini shirinlik sifatida dasturxonga tortiladigan «Brown Betti» nima ekanligi haqida bosh qotirishdan xalos qiladi. Ayrim hollarda zarur bo'lgan qo'shimcha izoh matn ichida yoki sahifa ostida ham berilishi mumkin:

Hulosa qiladigan bo'lsak har qanday matn u yoki bu darajada uni o'qiydigan, qabul qiladigan kishiga (retseptorga) ta'sir ko'rsatadi. Asliyatdagi matn ta'sirining tarjimada qayta yaratilishi tarjimaning pragmatik salohiyatini aks ettiradi

**Adabiyotar ro'yxati:**

1. Chang, N.F. (1996): —Towards a better general theory of equivalent effectl in Babel. No.42 vol.pp.1-17.
2. Kwofie, E. (1999): —On the relationship of translator to linguistics and stylisticsl in Eureka, vol.13, June, pp.40-50.
3. Lawal, B. et al. (1996): —A pragmatic study of selected pairs of Yoruba proverbsl in Journal of Pragmatics, p. 652.
4. Lederer: Interpreter pour traduire, Paris: Didier Erudition,pp.37-71.